

O'zbekistonda Jahon matbuot erkinligi kuni

Jahon matbuot erkinligi kuni munosabati bilan Toshkentda 2021 yil 3-may kuni Yoshlar ijod saroyida "Yangi O'zbekiston. Yangi nigoh ". Media-haftalik 3-maydan 7-maygacha davom etadi.

Tadbirda etakchi jurnalistlar, texnik ekspertlar, media mutaxassislar va yosh jurnalistlar qatnashadi.

YUNESKO Bosh direktori Odri Azoulay xonim nomidan YUNESKO Bosh direktorining o'rinbosari Xing Tsu "Yangi O'zbekiston. Yangi nigoh "media-haftalikning ochilish marosimi ishtirokchilariga tabrik so'zini yo'lladi.

O'zining video-murojaatida professional jurnalistlarning axborotni tayyorlash va yangiliklarni tarqatishda, shuningdek dezinformatsiya va boshqa zararli materiallarga qarshi kurashda hal qiluvchi rolini ta'kidlab o'tdi hamda YUNESKOning jurnalistika sohasini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari haqida gapirdi.

"Biz inson huquqlari va so'z erkinligi to'g'risidagi xalqaro qoidalarga rioya qilgan holda kontent mazmunini tartibga solish kabi sohalarda onlayn platformalarning shaffofligini oshirish ustida ish olib bormoqdamiz. Biz internetda firibgarlik yoki manipulyatsiyani oldini olish uchun fuqarolarni yangi axborot muhitida orientirlanish uchun ularda zarur bo'lgan ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirmoqdamiz.

To'liq video-maktubni ushbu havolada ko'rishingiz mumkun

<https://www.facebook.com/UNESCO.Tashkent/posts/2981271842196178>

Video-maktub matni va uning o'zbek va rus tillariga tarjimasini ushbu havolada o'qishingiz mumkun

https://en.unesco.org/sites/default/files/ddg_message_eng_rus_uzb.pdf

Shuningdek, 3-may kuni Turkiston saroyida O'zbekistonda an'anaviy Jahon matbuot kuni doirasida o'tkaziladigan "Oltin qalam" 15-milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

YUNESKOning O'zbekistondagi Vakili janob Yan Xladik ishtirokchilarga video -tabrik bilan murojaat qildi.

Xususan, janob Xladik , 15 yil davomida "Oltin qalam" tanlovi jurnalistika sohasidagi eng etuk mutaxassislarni aniqlash va ularni O'zbekistonda jurnalistika rivojiga qo'shgan hissasi uchun davlat va jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishi uchun imkoniyati yaratishini ta'kidladi.

Tabrik so'zning ingliz va o'zbek tillaridagi to'liq matni bilan tanishish uchun ushbu sahifani oching

Shuningdek, "WPF Voices" tashabbusi doirasida O'zbekistonning ikki taniqli jurnalistlari: O'zbekiston jurnalistlarini qayta tayyorlash markazi direktori Gulnora Bobojanova va radio-jurnalisti, Autoradio Uzbekistan dastur direktori Nazira Inoyatova xonimlarning video xabarlarini yozib olindi..

Gulnora Bobojanova xonimning video-tabrigini ko'rish uchun shu erni bosing (video rus tilida, ingliz va o'zbek subtitrlari bilan yo'zilgan)

<https://www.facebook.com/UNESCO.Tashkent/posts/2980419042281458>

<https://www.facebook.com/UNESCO.Tashkent/posts/2980421288947900>

Nazira Inoyatova xonimning video-tabrigini ko'rish uchun shu erni bosing (video rus tilida, ingliz va o'zbek subtitrlari bilan yo'zilgan)

<https://www.facebook.com/UNESCO.Tashkent/posts/2980424398947589>

<https://www.facebook.com/UNESCO.Tashkent/posts/2980426538947375>

Izoh: Media haftaligi tashkilotchilari - O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalarining milliy assotsiatsiyasi (NAESMI), MY5 telekanali, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi, O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Komissiyasi, Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, aloqa, O'zbekiston kinematografiya agentligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi.

Oltin Kalam tanlov tashkilotchilari -- O'zbekiston Jurnalistlari Ijodiy uyushmasi va Xalqaro jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi.